XALQ HOKIMIYATCHILIGINI SHAKLLANTIRISH - JAMIYAT BARQAROR TARAQQIYOTINI TA’MINLASHNING STRATEGIK ASOSI



Kamoliddin Mirzaaxmedov
O‘zbekiston Milliy universiteti
“Siyosatshunoslik” kafedrasi professori
siyosiy fanlar doktori (DSc).

“Barqarorlik” tushunchasining hozirgacha erishilgan va tan olingan shakli- demokratik izlanishlar cheki emas, oraliq hosilasi, xolos. Shu sababli haqiqiy demokratiyani ta’minlash uchun tom ma’nodagi xalq hokimiyatchiligini qaror toptirishga qodir, davlat institutlarining inson manfaatlari uchun chinakamiga xizmat qilishini ta’minlay oladigan samarali mexanizmni shakllantirish hozirga qadar muhim vazifa bo‘lib qolayotganligi, shubhasiz. Hozirgi vaqtda demokratik siyosiy tizimning eng muhim sub’ekti bo‘lmish davlat uning boshqaruv tizimini isloh qilishda yangi vazifalarni joriy etish avvalambor, siyosiy institutlarning va nodavlat uyushmalarning xilma xilligi hamda ularning rolini mustahkamlanishi, aholining siyosiy faolligini oshirish asosida jamiyat hayotini yanada demokratiyalash islohotlarning muhim asosi bo‘lib bormoqda.

Davlat boshqaruvi jarayonlarini tadqiq etish bilan shug‘ullanadigan deyarli barcha zamonaviy ilmiy maktablar va markazlar, davlat boshqaruvi faqat legitimlikka tayanuvchi jamiyat doirasida amal qilishi mumkinligini ta’kidlaydi. Masalan “kuchli ma’muriyatchilik” tarafdorlari (M.Veber, A.Gaudner va boshqalar) hukumatning demokratik shakligina oqilona byurokratiya mexanizmlarini ta’minlay olishiga ishonishgan[22]. “Yetakchilik yondashuvi” vakillari esa (A.Ozborn va A.Gebler), davlat boshqaruvini vertikal munosabatlarda emas, balki gorizontal ko‘rinishda bo‘lishi kerakligini yoqlab chiqishadi. Bu bilan, gorizontal boshqaruv sohasida siyosiy qarorlar qabul qilishda fuqarolik jamiyati institutlarining ta’sir elementlarini hisobga olish, aynan demokratik jamiyatning legitimlik darajasi belgilari deb hisoblashadi.

Bizningcha, legitimlik darajasini gorizantal boshqaruv sohasida amal qilishi jamiyatda fuqarolik jamiyati institutlarining jadalroq rivojlanishiga yordam beradi. Bunda legitimlashuv muvaffaqiyatining eng muhim umumiy sharti bo‘lib, davlat muassasalarining mamlakatni boshqarish qobiliyatini saqlagan holda, qonun doirasida jamiyatni isloh qilishni mo‘ljallovchi siyosiy barqarorlik hisoblanadi.

Jumladan, O‘zbekiston Respublikasining yangi Konstitutsiyasi 2-bobi “Xalq hokimiyatchiligi”[23] – deb nomlanib, bunda ushbu bobning 7-moddasida xalq davlat hokimiyatining birdan bir manbai ekanligi mustahkamlangan. Ushbu moddaning mazmuni shunda namoyon bo‘ladiki, O‘zbekiston Respublikasida davlat hokimiyati xalq manfaatlarini ko‘zlab va O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi hamda uning asosida qabul qilingan qonunlar vakolat bergan idoralar tomonidangina amalga oshirilishi mustahkamlangan. Demak, xalq hokimiyatchiligi bevosita konstitutsiyaviy institut bo‘lib, bunda davlat hokimiyatining manbai xalqdan kelib chiqishi tushuniladi.

Sharq mutafakkirlaridan Abu Nasr Forobiy o‘z asarlarida davlat hokimiyati va fuqarolik jamiyati munosabatlari masalasiga alohida e’tibor qaratgan. Hozirgi davr xalq demokratiyasining muhim jihatlari Forobiy e’tiboridan chetda qolmagan: “Ularning o‘zlaridan («fuqarolardan», demoqchi) saylangan rahbar yoki boshliqlar hokimi mutlaq bo‘lmaydi. Ular odamlar ichidan ko‘tarilgan, sinalgan, eng olijanob, rahbarlikka loyiq kishilar bo‘ladilar. Shuning uchun bunday rahbarlar o‘z saylovchilarini to‘la ozodlikka chiqaradilar, ularni tashqi dushmandan muhofaza qiladilar. Bunday rahbarlar hammaga barobar munosabatda bo‘ladilar, hatto hammaning manfaatini o‘zlarining manfaatlaridan ortiq ko‘radilar, umumning manfaati uchun o‘zlarining shaxsiy manfaatlaridan kechadilar, xalq manfaati uchun o‘zlaridagi kuch-g‘ayrat va boyliklarni ayamaydilar”[24].

Xalqning vakili bo‘lish uchun elni xizmatiga yaraydigan, xalqi uchun jonini beradigan inson bo‘lishi kerakligi yana bir Sharq ma’rifatparvari Abu Rayxon Beruniy asalarida o‘z ifodasini topgan. Sharqda “javonmardlik” siyosiy jamiyatni harakatlantiruvchi kuch sifatida e’tirof etilgan. Beruniy fuqaro qonunan o‘ziga tegishli o‘z joni va mulkini boshqaradi, boshqa hech narsaga egalik qilmaydi. Agar fuqaro o‘zgalarning yumushini o‘z mas’uliyatiga olsa, boshqalar uchun o‘zi mashaqqat tortib, o‘ziga in’om etilgan narsalardan muhtoj odamlarga bersa, bunday odamlarni javonmard deya talqin qilgan[25].

Jumladan, prinsip sifatida xalq hokimiyatchiligining mohiyati haqida so‘z ketganda huquqshunos S.Saidgaziyev uning mohiyatini xalq davlat hokimiyatining birdan bir manbai bo‘lib hisoblanishida, davlat xalq irodasini ifoda etishi va uning manfaatlariga xizmat qilishida, davlat

---

[22] Устинкин С.В., Агеев О.В. Бюрократия и политика: Учебное пособие / М.: Нижний Новгород. 2003, С.25

[23]Ўзбекистон Республикаси Конституцияси -Т., “Ўзбекистон”, 2023 й. 7-модда. // (Қонунчилик маълумотлари миллий базаси, 01.05.2023 й., 03/23/837/0241-сон).

[24]Абу Наср Форобий. Фозил одамлар шаҳри. –Т.: «Янги аср авлоди», 2016. –Б.190.

[25] Беруни А.Р. Минералогия: собрание сведений для познания драгоценностей. -М.: Издательство АН СССР, 1963. –Б.14.

organlari va mansabdor shaxslar o‘z vakolatlarini xalqdan oladi hamda jamiyat va fuqarolar oldida mas’ulliklarida, fuqarolar jamiyat va davlat ishlarini boshqarishda bevosita hamda o‘z vakillari orqali ishtirok etish huquqidan foydalanishlarida, davlat hokimiyati faqat xalq nomidan amalga oshirilishi, davlat hokimiyatini muayyan bir guruh, partiya yoki boshqa idora nomidan amalga oshirilishiga yo‘l qo‘yilmasligida namoyon bo‘lishini qayd etadi.

Amerikalik siyosatshunos R.Dal quyidagilarni alohida ta’kidlaydi: xalq hokimiyatchiligining o‘ziga xosligi tabiati ikki yarim ming yildan ortiq vaqt davomida muhokama qilinib kelinayotgan bo‘lib, bir qarashda bunday muddat xalq hokimiyatchiligining to‘liq o‘ziga xos xususiyatlarini ochib berish uchun yetarli bo‘lib hisoblanadi. Ammo, bugungi kunga qadar xalq hokimiyatchiligining o‘ziga xos xususiyatlari ochib berilmadi. Bunday xususiyatlar turli davlatlarda turlicha bo‘lib qolmoqda[26].

Ta’kidlash kerakki, xalq hokimiyatchiligi prinsipi asosiy ustuvor qoida tariqasida aksariyat demokratik davlatlarning Konstitutsiyalarida o‘z aksini topgan. Misol uchun, Fransiya Konstitutsiyasining 3-moddasi, Germaniya Asosiy qonunining 20-moddasi, Finlandiya Konstitutsiyasining 2-moddasi mazkur prinsipga bag‘ishlangan bo‘lib, ularda davlat hokimiyati to‘laligicha xalqdan kelib chiqishi, xalq hokimiyatchiligi saylovlar, referendumlar hamda davlat hokimiyati organlari orqali amalga oshirilishi belgilangan[27]. Shu o‘rinda qayd etish joizki, “xalq hokimiyatchiligi” atamasi yunoncha “demokratiya” (“demokratia”) so‘zining aynan tarjimasi bo‘lib, bu ibora ilk bor yunon shahar-davlatida paydo bo‘lgan va keyinchalik butun dunyoga tarqalgan hamda siyosiy lug‘atdan mustahkam o‘rin olgan. Boshqa bir guruh olimlar xalq hokimiyatchiligi tushunchasini davlat va jamiyat boshqaruvida xalqni bevosita yoki o‘zlari tanlagan vakillar orqali ishtirok etishi tarzida izohlaydilar. Demokratiya so‘zi “demos” (“demos”) xalq va “kratos” (“kratos”) hokimiyat so‘zlarining birikmasidan tuzilib, “xalq hokimiyatchiligi” deganidir[28].

Fikrimizcha, demokratizm prinsipining muhim xususiyati shundaki, unda xalq hokimiyati, ya’ni ozchilikning ko‘pchilikka bo‘ysunishi qoidasi rasmiy ravishda e’lon qilinadi hamda fuqarolarning erkinligi va teng huquqligi e’tirof etiladi. Bu shartlar jamiyat hamda uning a’zolari hayotining asosiy qonuni bo‘lgan bosh qomusi - Konstitutsiyada aks ettiriladi.

O‘z navbatida xalq hokimiyatchiligi tushunchasi uning quyidagi o‘ziga xos xususiyatlaridan kelib chiqadi:

birinchidan, davlat hokimiyati organlariga yoki uning oliy mansabdor shaxslariga bevosita vakolat xalq nomidan beriladi;

ikkinchidan, xalq hokimiyatchiligida faqat u saylagan yoki shakllantirgan davlat organlari yoxud mansabdor shaxslar faoliyat olib boradi;

uchinchidan, xalq hokimiyatchiligida xalq jamiyat hayotiga muhim bo‘lgan masalalarni faqatgina o‘z xohish-irodasi bilan hal etadi.

Siyosiy fanlar sohasiga oid ko‘plab ilmiy tadqiqotlarda xalq hokimiyati bilan bog‘liq masalalar turli tushunchalar orqali ham ifodalanishini kuzatish mumkin. Siyosiy fanlarga oid adabiyotlarda xalq hokimiyatchiligining tabiatini ifodalovchi bir nechta atamalarga duch kelamiz: “vakillik”, “vakillik hokimiyati”, “xalq vakilligi”, “xalq hokimiyati”, “vakillik demokratiyasi” va boshqalar. Jumladan, vakillik-ishtirok etish, safarbarlik, vakillik institutlarini yaratish orqali fuqarolarning katta qismini siyosiy jarayonlarga jalb qilish, deb tushuniladi[29].

---

[26]Даль Р. О Демократии. -М.: “Аспект пресс”, 2000. С.9.

[27]Mirzaaxmedov K.M. Davlat boshqaruvi tizimini demokratlashtirishda siyosiy hokimiyat legitimligini takomillashtirish mexanizmlari. Monografiya, -T., “Ma’rifat”, 192 b.

[28]Ўзбекистон Республикасининг конституциявий ҳуқуқи. – Тошкент. ТДЮИ, 2005 й. – 124 б.

[29]Авакьян С.А. Представительство в конституционном праве: вопросы теории и практики: Монография / С.А.Авакьян -Москва : Юстицинформ, 2022. -484 с.

Xalq vakilligi – davlat organida o‘z manfaatlarini himoya qilish uchun saylovchilar ishonchini qozongan saylovning normativ-huquqiy va institutsional tizimi hisoblanadi. Demak, vakillik demokratiyasi faqat xalq hokimiyati organlari orqali amalga oshiriladi. O‘z navbatida, xalq vakilligi-bu qonunda ko‘zda tutilgan vakillik prinsipi asosida bilvosita xalq irodasini ifoda etish vositasi hisoblanadi. Jumladan, O‘zbekiston Respublikasida xalq hokimiyatchiligining asosiy belgilariga quyidagilarni kiritish mumkin[30]:



O‘z navbatida u yoki bu davlatda xalq hokimiyatchiligi bugun paydo bo‘lib qolmasdan, uzoq yillar davomida tegishli davlatning mentaliteti va an’analaridan kelib chiqib, uzoq yillar davomida xalq hokimiyatchiligining umumiy belgilari shakllanib, takomillashib bordi. Ayni paytda esa, xalq hokimiyatchiligining umumiy ko‘pchilik jahon mamlakatlari tomonidan e’tirof etilgan belgilari ham mavjud bo‘lib, bunday belgilarning mavjudligi qonun ustuvorligiga asoslangan demokratik taraqqiyot yo‘lini tanlagan har bir davlat uchun o‘ziga xos standart vazifasini o‘taydi.

Har qanday munosabat kabi davlatning hokimiyat munosabatlari ham ob’ekt, sub’ekt va vositalardan tarkib topadi. Demokratik davlat hokimiyatining sub’ekti - xalq va xalq nomidan ish ko‘ruvchi davlat apparatidir. Davlat hokimiyati ob’ekti - tor ma’noda shaxs, ijtimoiy guruh va tashkilotlar, keng ma’noda esa jamiyat hisoblanadi. Davlat hokimiyati vositalari huquq, nufuz, kuch va boshqalarda ifodalanadi. Qoida tariqasida davlat hokimiyati sub’ekti konstitutsiya va qonunlar asosida davlat organlari tomonidan davlat hokimiyatining qaysi xajm va qanday shakllarda amalga oshirilishini ko‘rsatib, davlat organlari uchun me’yoriy amal qilish chegarasini belgilab beradi[31]. Mana shu chegara doirasida davlat organlarining faoliyati legitim va legal hisoblanadi.

Ma’lumki, xalq hokimiyati – bu huquq normalari doirasida ko‘zda tutilgan vakillik prinsipi asosida xalq irodasini ifoda etish vositasidir.

[30]Манба: Ўзбекистон Республикаси қонунчилик маълумотлари миллий базаси. https://lex.uz/uz//Ўзбекистон Республикаси Конституцияси. –Т., “Ўзбекистон”, 2023. 7-модда.

[31] Гогин А.А., Липинский Д.А., Малько А.В. и др. Теория государства и права: учебник (под ред. А.В. Малько, Д.А. Липинского). - "Проспект", 2016 г.

Fuqarolarning hatto eng ahamiyatsiz ko‘ringan davlat funksiyalarini bajarishda ishtirok etishlari ham samaralidir, shuning uchun jamiyat taraqqiyoti imkon qadar keng ko‘lamli bo‘lishi kerak. Ammo, jamoat ishlarida barchaning shaxsiy ishtirokini birdek ta’minlash imkoni bo‘lmagani uchun xalq hokimiyati ideal boshqaruv shakli bo‘lib xizmat qiladi[32].

Bugungi davrda shakllangan xalq hokimiyatchiligi tizimi klassik andozaga tayanadi. Uning mohiyati – hokimiyat erkin va adolatli saylovlarda o‘z vakillariga vakolat berish orqali o‘z fuqarolarining siyosiy tengligini ta’minlashi, hukumatning hisobdorligi va fuqarolarning jamiyat boshqaruviga ta’siridan iboratdir. XIX asrning oxirida tuzilgan ensiklopediya lug‘atida “xalq hokimiyatchiligi” tushunchasi shunday ta’riflangan: "... bu shunday tuzilmaki, xalqning yoki uning biron bir qismining xohish-irodasini ifodalaganligi sababli tegishli hokimiyat yoki ma’lum bir huquqlarga ega bo‘lgan institutlardir"[33].

Hokimiyatda xalq vakillik organlari, xalq hokimiyatini tashkil etishga erishish muammosi asrlar davomida turli xil siyosiy guruhlar va ijtimoiy qatlamlarni “hayiqtirib turadigan to‘siq” bo‘lib kelgan. Bir necha bor hokimiyat tepasiga kelgan siyosiy kuchlar o‘z qonunchiligida “xalq vakilligi va xalq suvereniteti”dan eng muhim g‘oya sifatida foydalanganlar.

XVIII-XIX asrlarda rivojlangan vakillik tizimi fuqarolarga o‘z vakolatlarini vakillik organiga topshirish imkonini berish bilan chegaralanmadi. Parlament deputati nafaqat uni saylaganlar, balki butun xalqning vakiliga aylandi, shuning uchun u o‘z saylovchilariga qaram emas va ularni chaqirib olishlari ham mumkin emas edi.

XVII asrning oxiridan boshlab XIX asrga qadar parlamentarizm g‘oyalari shakllanib, hokimiyatni ajratish doktrinasi ishlab chiqilganida parlamentga qonun chiqaruvchi hokimiyat sifatida alohida o‘rin berildi. Bundan tashqari, o‘sha paytda ham vakillik organlari xalqning irodasini ifoda etishi, qonunchilik faoliyati esa, saylovchilarning ommaviy irodasi bilan bog‘liq, degan xulosaga kelingan edi.

Davlat hokimiyatining qonun chiqaruvchi, ijro etuvchi va sud hokimiyatiga bo‘linishini xalq hokimiyatchiligining o‘ziga xos muhim belgisi sifatida e’tirof etiladi. Bugungi kunga qadar davlat hokimiyatining bo‘linishi prinsipi tarixiy taraqqiyot jarayonida o‘z shakllanishining bir qancha bosqichlaridan va ko‘plab sinovlardan o‘tganligini hamda demokratik huquqiy davlat qurilishining ajralmas sharti va belgisiga aylanishini qayd etib, davlat hokimiyati bo‘linishi prinsipining mazmuni va mohiyatini xalqning bevosita davlat hokimiyatini boshqarishda namoyon bo‘lishida deb[34], ta’kidlash mumkin.

Hokimiyatning vakillikka doir mohiyatida uning ko‘p qirrali ijtimoiy ehtiyojlarini qondirish, ularni huquqiy jihatdan tartibga solish, demokratiyaning eng muhim muammolari, qonunchilikning dolzarbligi va to‘liqligi, davlat hokimiyatining barcha tarmoqlari bilan samaradorligi haqida xulosa chiqarishimiz mumkin. Bu yerda jamiyat va shaxs, davlat va davlat apparati o‘rtasida o‘zaro bog‘liqlik mavjud. Demokratiya va xalq hokimiyati nafaqat xalqqa tegishli ekanligini, balki ular tomonidan turli shakllarda to‘liq amalga oshirilishini anglatadi. Bunda davlat hokimiyati vazifalarini bajarishda aholining haqiqiy ishtiroki ta’minlanadi.

Devid Chandler *(David Chandler)*ning yondashuviga ko‘ra, zamonaviy nazariy munozaralar shuni ko‘rsatadiki, liberal zamonaviylik davridan farqli o‘laroq, bugungi kunda demokratiya muammolari guruhlar va shaxslarning ko‘plab raqobatdosh shaxsiy manfaatlaridan iborat bo‘lgan jamoaviy irodani shakllantirish bilan bog‘liq emas, balki “shaxslarning

[32]Милль Дж. С. Представительная власть // Теория и практика демократии. Избранные тексты: пер. с англ. / под ред. В. Л. Иноземцева, Б. Г. Капустина. М.: Ладомир, 2006. –С.265.

[33]Энциклопедический словарь, -Т., XXV. - СПб.: 1898. –Б.29-28

[34]Медушевский А.Н. Сравнительное конституционное право и политические институты: курс лекций. -М.: ГУВШЭ, 2002. -С.180-182

imkoniyatlarini kengaytirish orqali hokimiyatni yanada teng taqsimlash”[35] mexanizmini qonuniylashtirish, ya’ni, qarorlarni qabul qilishning yakuniy ishtirokchilari sifatida fuqarolar va hamjamiyatlarni ijtimoiy vakolatlar (social empowerment) bilan ta’minlashga bog‘liq.

Fransiyalik olim Per Burdyo xalq hokimiyati haqida fikr bildirar ekan, “siyosiy maydon” atamasiga alohida murojaat qiladi. Olimning fikricha, “siyosiy maydon - bu unga jalb qilingan agentlar (ya’ni vakillar) o‘rtasidagi raqobatda yuzaga keladigan siyosiy muammolar, dasturlar, tahlillar, sharhlar, tushunchalar, natijalar va voqealar paydo bo‘ladigan joydir. Bu yerda oddiy fuqarolar “iste’molchilar” pozisiyasida turib, siyosiy sohada taqdim etilayotgan mahsulotlardan o‘zlariga keragini tanlaydilar. Siyosiy maydon- ijtimoiy dunyoni anglash va ifoda etish vositasidir. Buning ma’nosi, siyosiy maydon siyosiy nutqning universalligini cheklaydigan o‘ziga xos senzura vazifasini bajaradi. Siyosiy maydondagi yetakchilar (liderlar) yoki dominantlar ham o‘z manfaatlarini ko‘zlab, ham o‘zlarining ishonchli vakillari manfaatlarini ifoda etish imkoniyatiga egadirlar”[36].

Fikrimizcha, siyosiy resurs yoki siyosiy marketing – siyosat texnologiyalarini ishlab chiqarish vositalariga ega bo‘lganlarning qo‘lida, ularning boshqaruvida bo‘ladi. Bular vakillik institutlari, ommaviy axborot vositalari, jamoat birlashmalari, siyosiy uyushmalar va partiyalardan iborat ulkan siyosiy mexanizmdir. Xalq hokimiyatchiligining muhim asosi bo‘lgan legitimlik masalasi taniqli fransuz faylasufi Per Rozanvallon tomonidan uning “kontrdemokratiya” konsepsiyasi doirasida ko‘rib chiqildi. Olimning fikricha, siyosiy ishonchsizlikning demokratik shakli bo‘la oladigan tuzilmalarni yaratish kerak (olim ularni "kontr-demokratiya" deb ataydi), shuningdek, mavjud vakillik institutlarini yanada kuchaytirish lozim. Ular mavjud vakillik institutlarini to‘ldiradi, inqirozdan chiqish yo‘llarini ko‘rsatadi. Rozanvallonning fikricha, "siyosiy ishonchsizlik" institutlaridan birinchisi – nazorat institutidir, u institutsional disfunksiyalar ichida eng muhim vosita hisoblanadi”. Ya’ni, muallif tomonidan “saylovchilar va ularning deputatlari o‘rtasidagi aloqalarning susayishi” nazarda tutilyapti. Bu o‘rinda so‘z hukumat faoliyatining doimiy ravishda fuqarolik jamiyati institutlari tomonidan nazorat qilinishi va baholanishi xususida bormoqdaki, nazorat vakolatlari muntazam ravishda diversifikatsiya qilinadi va kengaytiriladi.

Kontrdemokratiya tamoyillariga asoslangan ishonchsizlikning ikkinchi shakli – “sanksiyalar va preventiv choralar singari jamiyatning o‘ziga xos vakolatlari” hisoblanadi. Ular ham vaqt o‘tgan sari kengayib borgan, shuningdek, "turli xil ijtimoiy, iqtisodiy va siyosiy guruhlardan kelib chiqadigan veto" shakllarida o‘z ifodasini topgan.

Kontrdemokratiya tuzilishidagi uchinchi omil – bu “xalqning sudyaga aylanishidir”, bu odamlarning qabul qilinayotgan siyosiy qarorlar, amaldagi siyosiy xatti-harakatlarga nisbatan o‘z munosabatini bildirish huquqini, ya’ni hukm chiqarishini anglatadi[37]. "Fuqarolik so‘rovlari va talablariga nisbatan rasmiylarning hisobdorligi va mas’uliyatining ortishi" asnosida hukumat a’zolarining o‘z faoliyati uchun javobgarligining yanada ortishiga bo‘lgan talab kuchayadi.

Davlat hokimiyati va boshqaruv organlari faoliyatini takomillashtirish sohasidagi islohotlarning samaradorligini oshirish hokimiyatning turli tarmoqlarining vakolatlarini tiyib turish va aniq belgilab qo‘yish to‘g‘risidagi tamoyilni joylardagi hokimiyat organlari har bo‘g‘inining o‘zaro vakolatlarini chegaralab qo‘yishda ham qat’iylik bilan joriy etishni taqozo etadi. Joylardagi davlat hokimiyati va boshqaruv organlarining bir qism vazifalarini asta-sekinlik bilan nodavlat, fuqarolik tuzilmalariga, demokratik institutlarga va jamoat tashkilotlariga, fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlariga olib berilishi mahalliy vakillik organlari faoliyatida o‘zining yorqin ifodasini topmoqda. Xalq deputatlari mahalliy Kengashlari turli siyosiy partiyalar, nodavlat tuzilmalar va ijtimoiy harakatlar, fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish

[35]Chandler D. Democracy unbound. Non-linear politics and the politicization of everyday life // European journal of social theory. – L., 2014. – Vol. 17, N 1. –P.46.

[36]Бурдье П. Социология социального пространства. М.: «АЛЕТЕЙЯ» СПб.: 2005. -С.180, 181, 184

[37]Гребенников В.В., Грудцына Л.Ю., Марчук Н.Н. Сангаджиев Б.В. Адвокатура и гражданское общество: учебное пособие (под ред. д.ю.н., проф. В.В. Гребенникова). – “ЮРКОМПАНИ”, 2016 г.

organlari vakillarining ko‘ppartiyaviylik asosida erkin muqobil saylov o‘tkazish natijalariga qarab shakllantiriladi. Mahalliy vakillik hokimiyati organlari ishida turli siyosiy partiyalar, nodavlat tuzilmalar va ijtimoiy harakat, fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlari, saylovchilar tashabbuskor guruhlarning ishtiroki joylardagi davlat hokimiyatini boshqarishda aholining turli qatlamlari manfaatlari va huquqlarining amalda ro‘yobga chiqishining yorqin namoyishi sifatida baholash mumkin.

O‘zbekistonda 2005-yildan ikki palatali parlament faoliyat boshladi. Bundan asosiy maqsad – “aholining mamlakat ijtimoiy va siyosiy hayotidagi ishtiroki ko‘lamini yanada kengaytirish bo‘lib, aynan shu maqsad yuqori palata – Senatning viloyat, shahar va tuman vakillik organlari deputatlaridan saylanishi zamirida ham mujassam”[38]. Ma’lumki, Senat-bu vakillik organi bo‘lib, Senat a’zolarining ko‘pchilik qismi xalq deputatlari viloyat, tuman va shahar kengashlarining deputatlari sifatida mamlakatimiz oliy qonun chiqaruvchi organida ana shu mahalliy Kengashlarning vakolatli vakillari hisoblanadi va ularga hisob beradi[39]. Ayni vaqtda Senatda o‘zlari vakil bo‘lgan hududlarning manfaatlarini himoya qiladi. O‘zbekiston Respublikasi qonunchiligiga muvofiq Senat va uning a’zolariga qonunchilik tashabbusi huquqi berilmagan (Parlamentning yuqori palatalari Rossiya, Belarus, Polsha, Chexiya, Ruminiya, Germaniya, Ispaniya, Sloveniya, AQSh, Gollandiya, Buyuk Britaniya, Yaponiya, Kanada, Yamayka, Barbados, Beliz, Shveytsariya, Irlandiya, Ispaniya, Avstriya, Belgiya va boshqa mamlakatlarda ham faoliyat ko‘rsatmoqda[40].

Parlament o‘zining vakillik vazifasini amalga oshirar ekan hokimiyat manbai bo‘lgan xalqning davlat hokimiyati bilan birlamchi, asosiy va doimiy aloqasini ta’minlab turadi. Shuning uchun qonun ijodkorlari, bir tomondan, fuqarolarning haqiqiy hayotini bilishlari, uning qiyinchiliklari va muammolarini tushunishlari, turli ijtimoiy qatlamlar, guruhlarning ehtiyojlari va manfaatlarini ko‘ra olishlari, boshqa tomondan, davlat hokimiyati faoliyatini qonun ijodkorligi orqali belgilashlari, uni jamiyat ehtiyojlariga xizmat qilishga majbur qilishlari kerak[41]. Shu bilan birga, ijro hokimiyati ustidan nazorat o‘rnata olishlari kerak. Bunday munosabatlarning mavjudligi qonun chiqaruvchi hokimiyat davlat hokimiyatining boshqa tarmoqlari faoliyatiga befarq bo‘lmasligi yoki uning faoliyatini qonunlar amalda qanday bajarilayotganiga e’tibor bermasdan, faqat qonunchilik faoliyati bilan cheklashi mumkinligidan dalolat beradi.

Xalq hamisha hokimiyat va kuchga ega, uni bir-biridan ajratib bo‘lmaydi. Bu aynan klassik demokratiyaning ko‘rinishi hisoblanadi[42]. Agar qonun chiqaruvchi hokimiyat fuqarolar va jamiyat ehtiyojlari, manfaatlari va hayotiy maqsadlarini haqiqatan ham ifoda etmasa, unda qabul qilingan qonunlarning ijrosi ta’minlanmaydi. Hatto kuchli hokimiyat ham buni amalga oshirishga qodir emas, chunki ayrim befarq fuqarolar eng jiddiy o‘zgarishlarni ham sezmaydilar. Bundan tashqari, jamiyat taraqqiyoti uchun eng kerakli, eng zarur qonunlar ham xalq tomonidan tushunmaslik yoki majburan kiritilishi bois bajarilmaydi.

Qonunning ustuvorligi – huquqiy davlatning asosiy prinsipidir. U hayotning barcha sohalarida qonunning qat’iyan hukmronligini nazarda tutadi. Hech bir davlat organi, hech bir

---

[38]Каримов И.А. Бизнинг бош мақсадимиз-жамиятни демократлаштириш ва янгилаш, мамлакатни модернизация ва ислоҳ этишдир. Ўзбекистон Республикаси Олий Мажлис Қонунчилик палатаси ва Сенатининг қўшма мажлисидаги маъруза. 2005 йил 28 январь. –Б.116 // www.press-service.uz.

[39]Сидиқов Д. Олий Мажлис Сенати ва маҳаллий вакиллик органлари ўзаро ҳамкорлигининг янгича талқини // Халқ сўзи. – 2011 йил 12 апрель.

[40]Иванова Е.Н. Порядок формирования парламента в России и зарубежных странах // Вестник Российского государственного гуманитарного университета. - 2010. - № 4. –С.11-19.

[41] Пархоменко А.Г., Софрина З.Ф. Государственная власть в Российской Федерации: Монография. - "ЮРКОМПАНИ", 2014 г.

[42]Батуев Ц.Б. Представительная власть как ключевая проблема общественно-политической жизни //Власть. 2012. №3. -С.108-109. https://cyberleninka.ru/article/n/predstavitelnaya-vlast-kak-klyuchevaya-problema-obschestvenno -politicheskoy-zhizni.

xo‘jalik yurituvchi va ijtimoiy – siyosiy tashkilot, hech bir mansabdor shaxs, hech bir kishi qonunga bo‘ysunish majburiyatidan xalos bo‘lishi mumkin emas. Qonun oldida barcha barobardir.

Xulosa o‘rnida shuni ta’kidlash mumkinki, taraqqiy etgan demokratik davlatlar amaliy tajribasi ko‘rsatganidek, fuqarolik jamiyatining asosiy unsurlaridan bo‘lmish – demokratik davlat xizmati tizimi ham mazkur tizimda o‘ziga xos muhim va betakror o‘rin egallaydi. Albatta, siyosiy sohada hurfikrlik, erkinlik va plyuralizm har bir demokratik prinsiplarga asoslangan jamiyatning asosiy belgilaridan biridir. Ammo shuni ham unutmaslik zarurki, mazkur vaziyatni ta’minlovchi va kafolatlovchi, yetarli darajada barqaror rivojlanishga imkoniyat yaratguvchi davlat xizmati institutisiz tasavvur etish qiyin.

O‘tgan so‘nggi besh yil ichida hozirgi demokratik xalqaro mezonlarga ko‘ra mamlakatimizning siyosiy imiji butkul o‘zgardi. O‘zbekiston shu qisqa muddat ichida mazmun-mohiyatiga ko‘ra keng qamrovli va chuqur ijtimoiy-siyosiy ahamiyatga molik demokratik o‘zgarishlarni amalga oshirdi. O‘z taraqqiyotining sifat jihatidan yangi bosqichiga o‘tib, izchillik va barqarorlikni ta’minlashga qaratilgan, rivojlangan milliy iqtisodiyot asoslarini ishonch bilan shakllantirishga kirishdi. O‘zbekistonda davlat siyosati, eng avvalo, xalq manfaatlaridan kelib chiqib olib borilmoqda. Faqat davlat manfaati uchun deya aholi haq-huquqini kamsitib, mustaqil tarzda amalga oshiriladigan qattiqqo‘llik boshqaruv vositasiga aylanib qolishiga yo‘l qo‘yilmadi. Aksincha, bu siyosat insonparvarlik va odamiylik ruhi bilan yo‘g‘rilib, o‘zining hayotiyligi, insonlarga yaqinligi va mas’uliyatliligi bilan dunyodagi boshqa davlatlarning ham e’tiborini o‘ziga jalb eta boshladi.